



UDK: 330.342.146 (575.1)

Islom QODIROV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qodirovislomiddin74@gmail.com

QarDU dotsenti, PhD R.To'xtayeva taqrizi asosida

PROCESSES OF FORMATION OF PRIVATE PROPERTY IN KASHKADARYA

Annotation

This article analyzes the process of agrarian reforms implemented in the Qashqadaryo region during the 1990s, focusing on the financial and production activities of household plots, private farms, and collective farms. The study highlights the reduction of the state order system, allocation of land to private plots, development of private ownership, and the productivity of personal plots with supporting statistical data.

Keywords: Agrarian reforms, agriculture, household plots, private farms, financial efficiency.

ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В КАШКАДАРЬЕ

Аннотация

В данной статье анализируется процесс аграрных реформ, проведённых в Кашкадарьинской области в 1990-х годах, с особым вниманием к финансовой и производственной деятельности личных подсобных хозяйств, фермерских и коллективных хозяйств. В статье рассматривается сокращение системы государственных заказов, передача земель частным хозяйствам, развитие частной собственности и продуктивность личных участков с опорой на статистические данные.

Ключевые слова: Аграрные реформы, сельское хозяйство, личные подсобные хозяйства, фермерские хозяйства, финансовая эффективность.

QASHQADARYODA XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatida 1990-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlar jarayonini, xususan shaxsiy yordamchi xo'jaliklar, fermer va jamoa xo'jaliklarining moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qiladi. Maqolada davlat buyurtmasi tizimining kamayishi, yer maydonlarining shaxsiy xo'jaliklarga ajratilishi, xususiy mulkchilikning rivojlanishi va shaxsiy tomorqalarning samaradorligi statistik ma'lumotlar bilan ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Agrar islohotlar, qishloq xo'jaligi, xususiy mulk, shaxsiy xo'jalik, fermer xo'jaligi.

Kirish. Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tayanchi bo'lib, mamlakat ijtimoiy hayotida ham asosiy rol o'ynaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida hukumat tomonidan o'tkazilgan agrar islohotlar mamlakat qishloq xo'jaligi tizimida bir qator o'zgarishlarga olib keldi. Jumladan, sobiq kolxoz-sovxo'z asosidagi kollektiv boshqaruvdan xususiy va fermer xo'jaliklariga o'tish jarayoni ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayon Qashqadaryo viloyatida ayniqsa sezilarli bo'ldi, chunki viloyat tabiiy resurslar, yer maydonlari va aholining qishloq xo'jaligiga jalb qilinishi nuqtai nazaridan Respublika miqyosida o'zining alohida o'rniga ega edi.

Islohotlar natijasida shaxsiy yordamchi xo'jaliklar, fermer va jamoa xo'jaliklari faoliyati tizimli rivojlandi. Yer resurslari shaxsiy va ijtimoiy egalik shakllariga ajratildi, xususiy mulkchilikning kengayishi va bozor mexanizmlarining joriy etilishi esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shaxsiy tomorqalar va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy afzalliklari yaqqol namoyon bo'ladi: ular nafaqat yuqori hosil berishi, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi bilan ajralib turar edi.

Shu bilan birga, islohotlar hududiy va tuman kesimida ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish va moliyaviy-tadbirkorlik tizimini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqardi. Mazkur maqola Qashqadaryo viloyatida agrar islohotlarning samaradorligi, shaxsiy va fermer xo'jaliklarining moliyaviy-iqtisodiy natijalari hamda hududiy tajribalarni

o'rganish orqali qishloq xo'jaligi tizimini rivojlantirish va mahsuldorlikni oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan tarixiy rivojlanish, agrar siyosatning shakllanishi va iqtisodiy islohotlarning umumiy natijalarini yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, viloyat darajasida fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati, shuningdek hududiy o'zgarishlar yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Ushbu tadqiqot doirasida mamlakat Prezidenti nutqlari, hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlar, viloyat va tuman hokimliklari tomonidan e'lon qilingan arxiv materiallari, shuningdek, mutaxassis olimlar tomonidan yozilgan maqolalar asosiy manbalar sifatida tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili natijasida qishloq xo'jaligida yuz bergan ijobiy va salbiy o'zgarishlar qamrab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini tizimli va chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan. Tadqiqotning asosiy yondashuvlari – tarixiy, tizimli va izchillik yondashuvlari bo'lib, ular orqali viloyat qishloq xo'jaligi tizimidagi o'zgarishlar mantiqan va bosqichma-bosqich o'rganildi. Har bir ko'rsatkich tarixiy faktlar bilan

solishtirilib, viloyatdagi o'zgarishlar aniq dalillar bilan asoslab berildi. Shu bilan birga, sohadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimiga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. 1990-yillarning boshida O'zbekiston mustaqil davlat sifatida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida tub islohotlarni amalga oshirishga majbur bo'ldi. Bu davrda amalga oshirilgan islohotlar qishloq xo'jaligida xususiy sektorning rivojlanishi, shaxsiy tomorqalar va fermer xo'jaliklari ulushining oshishi, shuningdek, davlat buyurtmasi tizimi kamayishi orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan edi. Buning uchun esa qishloq xo'jaligi tizimi sobiq kolxoz-sovxo azosidagi kollektiv boshqaruvdan shaxsiy xo'jalik va fermerlik tizimiga o'tishi lozim edi. Chunki sobiq tizimda mavjud bo'lgan mulkchilik munosabatlari (mulkchilik shakllarida davlat ta'sirining yuqoriligi) sog'lom raqobat muhitiga to'sqinlik qilayotgan edi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi pastligiga hamda bozor mexanizmlarining yetishmasligiga sabab bo'lib qishloq aholisi, ayniqsa yoshlar o'rtasida tadbirkorlik ruhining rivojlanishiga putur yetkazotgan edi.

Davlat tomonidan xususiy mulkchilikni rivojlantirish bo'yicha izchil siyosat yuritildi. Shu asnoda 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi [7] farmoni bilan asta sekin xo'jalik faoliyatiga davlat aralashuvi tamoyilidan voz kechib borildi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida parranda, tuxum, asal, shifobaxsh o'tlar, deyarli barcha turdagi mevalar singari bir qancha qishloq xo'jalik mahsulotlariga davlat buyurtmasidan voz kechildi. Ko'gina xo'jaliklarga paxta tolasi, go'sht, sut donli ekinlarni 15 foizini, pilla mahsulotlarining 25 foizini o'zlar xohlagan narxda sotish huquqiga ega bo'ladi. [1]

O'tkazilgan islohotlar natijasi sifatida xususiy xo'jaliklar sekin – asta o'zining afzalligini ko'rsatadi. 1993-yilda Qashqadaryoda yer va suv manbalariga ega bo'lgan jamoa va davlat xo'jaliklarida har gektar yerdan o'ratacha 2 ming so'm atrofidagi daromad olingan bo'lsa, shaxsiy xo'jaliklarda bu miqdor 12 ming so'mni tashkil qiladi. Bundan tashqari, shaxsiy xo'jaliklarda har bir sigir 2500 kgdan sut bergan bo'lsa, davlat va jamoa xo'jaliklarida esa 960 kg sut sog'ib olinadi. [2]

Biroq agrar sohada amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayoni ayrim hollarda muammolsiz kechmagan. Ayrim xo'jaliklar rahbarlari davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida nazoratning sustligi sababli mol-mulkni noqonuniy ravishda sotib yuborish holatlari ham kuzatilgan. Masalan, 1990-yil 1-noyabrdan 1992-yil 1-fevraligacha bo'lgan davrda xo'jaliklar moliyaviy faoliyati bo'yicha o'tkazilgan rejali taftish natijalariga ko'ra Dehqonobod tumanidagi "Bosh Charbog'" davlat xo'jaligida xo'jalikka tegishli 10 ta traktor va 8 ta avtomashina viloyat dehqonchilik sanoat uyushmasining ruxsatisiz shaxsiy xo'jaliklarga sotib yuborilganligi aniqlangan. [3] Bu kabi holatlar o'tish davrida xususiylashtirish jarayonini tartibga solish va mulkdan foydalanish ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Asta-sekinlik bilan xususiylashtirish jarayonini tartibli tashkil etish va xo'jaliklarni yangi boshqaruv tizimiga o'tkazish natijasida Respublika bo'yicha 1993-yilda shaxsiy xo'jaliklar

ekin maydonlari 343,6 ming gektarga yetib, undan 210 ming tonna don, 1843,6 ming tonna sabzavot, 198,5 ming tonna kartoshka, 363,5 ming tonna poliz mahsulotlari va 281,5 ming tonna meva yetishtirildi. 1995-yilga kelib, respublikada etishtirilayotgan donning 10 foizi, kartoshkaning 42 foizi, sabzavotning 62 foizi, poliz mahsulotlarining 65 foizi, sutning 75 foizi, tuxumning 43 foizi va junning 64 foizi shaxsiy yordamchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keldi [4].

Qashqadaryo viloyatida esa mazkur davrda agrar sohada xususiy sektorning mavqeyi yanada mustahkamlanadi va 1993-yilda nodavlat sektorlarda go'shtning 48 foizi, tuxumning 60 foizi va sut mahsulotlarining 81 foizi ushbu tarmoq hissasiga to'g'ri keladi. Barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy qiymatini qo'shib hisoblaganda esa uning salkam 50 foizi davlatga qarashli bo'lmagan xususiy tarmoqlarda ishlab chiqarilganligi ma'lum bo'lgan [5].

Keyingi yillarda ham xususiylashtirish borasida islohotlar va davlat dasturlarini amalga oshirish jarayoni davom etadi. Jumladan, 1997-yilda Viloyat Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi belgilagan dasturga binoan 34 ta xo'jalikning mulk shakli o'zgartirilib ulardan 29 tasi paychilik jamiyatlariga, 4 tasi dehqon (fermer) xo'jaliklari birlashmasiga, 1 tasi agrofirma usulida faoliyat ko'rsatadigan tarmoqqa aylantiriladi. Ularda iqtisodiy islohotlar ijobiy natijalar olib keladi. Misol uchun 1996-yilda birgina Kasbi tumanidagi Sharof Rashidov nomli paychilik xo'jaligi 22066 ming so'm daromad qilib sof foyda qiymati 20.4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Chiroqchi tumanidagi X.Olimjon nomli dehqon (fermer) xo'jaligi uyushmasi ham mulk shakli o'zgartirilgandan so'ng xo'jalikning olgan daromadi 1 mln 822 ming so'mni tashkil qilib sof foyda qiymati 1 foizdan 11.02 foizga o'sishga erishadi. [6]

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kolxoz va sovxozlarga asoslangan markazlashgan boshqaruv tizimlari o'rimga tashkil etilgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklar va fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikni namoyon etgan. Xususan, shaxsiy xo'jaliklarda yer resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda chorvachilik mahsuldorligi davlat va jamoa xo'jaliklariga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Bu esa xususiy xo'jalik yuritish shakllari qishloq xo'jaligida bozor tamoyillariga moslashuvchanroq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida xususiylashtirish jarayonida ayrim mol-mulkning noto'g'ri baholanishi yoki xo'jalik resurslaridan maqsadsiz foydalanish holatlari ham uchraganligi aniqlandi. Bu esa agrar islohotlarni amalga oshirish jarayonida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Yer resurslaridan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirish maqsadida ilmiy-texnologik yondashuvlarni keng joriy etish; Xususiylashtirish jarayonida davlat mulkidan foydalanish ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va mulkni baholash tizimini takomillashtirish; Fermer va dehqon xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, kredit va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat va mafkura – Toshkent. "O'zbekiston", 1996. – b.102
2. Каримов И. И. Иктисодий ислохот: илк самаралар // Ўзбекистон: миллий истиклол, иктисод, сиёсат, мафкура. Асарлар тўплами. 1-жилд. –Ташкент: Ўзбекистон, 1996. –Б. 264.
3. Қашқадарё вилоят ҳокимлиги архиви, 829-фонд, 1-рўйхат, 22-ийғма жилд, 37-варақ
4. Maroziqov A. O'zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish // Экономика и социум №12(127)-2 2024
5. Қашқадарё вилоят ҳокимлиги архиви, 829-фонд, 1-рўйхат, 85-ийғма жилд, 57-варақ.
6. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 723-Фонд, 1-Рўйхат, 1-йж, 138- варақ.
7. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi 425-XII-son (1991-yil 11-noyabr) Qonuni.